

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№2

2026
fevral



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 619 sahifa.
2026-yil, fevral

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR BANKLARIDA RISK-MENEJMENTNING TASHKILIY MODELLARI.....	26
Madaminov Bekzod Allayarovich	
“HUDUDGAZTA’MINOT” AJ DA AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALAR SAMARASI	32
Shukurillaev Jahongir Botir o’g’li	
HARBIY XIZMATCHI AYOLLARNING MAXSUS KIYIM SIFATIGA QO’YILADIGAN DASTLABKI TALABLARNI SHAKLLANTIRISH	37
Abduraxmanova N.D., Mirtolipova N.X., Nasirullayeva G.S.	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ НЕСПЕЦИФИЧЕСКОГО ЯЗВЕННОГО КОЛИТА У ДЕТЕЙ	42
Закирова Бахора Исламовна, Каримов Достон Рустам угли	
ОЦЕНКА ВОЗДЕЙСТВИЯ ФИСКАЛЬНЫХ И КРЕДИТНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ НА РЫНКИ ВЫСОКОЛИКВИДНОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ МОНОПОЛИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	48
Бекзод Умматов	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА.....	55
Вахидов Азизжон Саиджонович	
SUG’URTA FAOLIYATIDAGI MOLIVAVIY RISKLAR: BAHOLASH VA MINIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI	58
Xalikulova Shirin Utkir qizi	
“ANDIJONDONMAHSULOT” AJ MISOLIDA XARAJATLARNING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI: AMALIY TAHLIL VA TAKOMILLASHTIRISH TAVSIYALARI	62
Xayitboyeva Laylo Oybekovna	
XORIJIY MAMLAKATLARNING NORASMIY IQTISODIYOT DARAJASINI PASAYTIRISHDAGI TAJIRIBASI	66
Alimardonov G’ayratjon Nuraliyevich	
XO’JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA BARQARORLIK HISOBOTLARI AUDITINI SHAKLLANTIRISH	72
Xolikov Ravshan Anvar o’g’li	
PUL - KREDIT SIYOSATINING TRANSMISSION MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH	76
Obidova Zilola Ikromjon qizi	
HOMILADORLIK DAVRIDA AYOLLARDA UCHRAYDIGAN GESTOZLI KATARAL GINGIVITNI KOMPLEKS DAVOLASHNI OPTIMALLASHTIRISH	81
Nomurodova Farangiz Lazizovna	
AGRAR KORXONALARDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA INVESTITSIYA MEXANIZMLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA RIVOJLANTIRISH YO’NALISHLARI	87
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	
YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA KICHIK BIZNES IQTISODIYOTINI TA’MINLASHDA INFRATUZILMALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	92
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI BAHOLASH METODOLOGIYASINING MAZMUNI VA TAMOIYILLARI	96
Mavrulov Ravshan Nematjonovich	



УПРАВЛЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫМИ КОММУНИКАЦИЯМИ В ПРОЕКТАХ	101
Носирова Гулираъно Абдулазиз кизи	
DAVLAT BUDJETI JARAYONIDA MONITORING VA MOLIVAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	107
Yax'yayeva Dilfuza Bagdatovna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
RAQAMLI MOLIVA TEXNOLOGIYALARI EVOLYUTSIYASINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI VA YUZAGA KELISHI MUMKIN BO'LGAN XATARLAR TAHLILI	117
Ko'chimov Jahongir Shuxrat o'g'li	
GAZ VA GAZ KONDENSATINI YIG'ISH VA TAYYORLASH TIZIMLARI UCHUN ZAMONAVIY LOYIHALASH USULLARI TAHLILI	123
Abdirazakov Akmal Ibragimovich Namozov Og'abek Maxmud o'g'li	
AGILE PROJECT MANAGEMENT IN THE DIGITAL ERA: STRATEGIES, FRAMEWORKS, AND BEST PRACTICES FOR SUCCESS	128
Utkirova Maftuna Murodjon qizi	
O'ZBEKISTON EKSPORTYOR KORXONALARINING YANGI BOZORLARGA CHIQUISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA MUAMMOLARI	134
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	139
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY JIHATLARI	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
OPTIMIZATION OF ROADSIDE AUTO CAMPING SITES (REST AREAS) ON HIGHWAYS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE: INFRASTRUCTURE GAPS AND CORRIDOR-BASED EVIDENCE FROM UZBEKISTAN	150
Akramov Akbarjon Akmal ugli	
QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION MARKETING YONDASHUVLARINING AHAMIYATI	156
Aminov Abbas Mo'minboy o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA AHOLI ISH BILAN BANDLIGI SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR	160
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
MINTAQADA XUSUSIY TIBBIYOT MUASSASALARIDA MARKETING STRATEGIYASI	165
Yakubov Temur G'anibekovich	
AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLAR TIZIMI	169
Siroj Zarina Rustambekovna	
AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINING YAIM VA BANDLIKKA TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL	176
Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	181
Ziyodullayev Qahramon	
ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТЬ: ПОЛЬЗА ДЛЯ ЭКОНОМИКИ И ЭКОЛОГИИ	185
Хамдамова Гавхар Абсаматовна	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISHNING MOLIVAVIY VOSITALARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	191
Mamatov Baxodir Quldoshovich	



KO'P QIRRALI VALLARNING SHAKLLANTIRISH METODLARI VA USULLARINI TAHLIL QILISH	197
<i>Xasanov Bobirmirzo Maxmudali o'g'li, Valixonov Dostonbek Azim o'g'li, Alibekov Rasulbek Qanotbek o'g'li</i>	
MINTAQA SANOATINING TARKIBIY TRANSFORMATSIYASI VA UNNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH	205
<i>Abdinazarov Xusan Shaymanovich</i>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	209
<i>Nomozova Qumri Isoyevna</i>	
XALQARO STANDARTLAR TALABLARI ASOSIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVINI TASHKIL ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	216
<i>Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li</i>	
QASHQADARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHNI TARTIBGA SOLISH TIZIMI	221
<i>Achilova Firuza Kurbanovna</i>	
BANK MENEJMENTIDA INKLYUZIV MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI, TAMOIYILLARI VA STRATEGIK AHAMIYATI	225
<i>Rajabov Oybek Panjievich</i>	
MINTAQADA OLIY TA'LIM TIZIMINING ISHSIZLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH	229
<i>Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li</i>	
MAISHIY XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION KLASSTER MODELINI JORIY ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	235
<i>Normurodova Zebo Eshmaxmatovna</i>	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INVESTITSiya FAOLIYATINI BOSHQARISH	240
<i>Xatamov Nurbek Ochirdiyevich, Sharifi Abdul Fatah</i>	
MOLIYAVIY REJALASHTIRISHNING AMALDAGI MUAMMOLARI VA ULARNI YECHIMI YUZASIDAN TAKLIFLAR	245
<i>Pardayev Jamshid Muzaffarovich</i>	
TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIK RISKLARINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	251
<i>Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li</i>	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	257
<i>Karimov Shohruh Boydulla o'g'li</i>	
"O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AKSIYADORLIK JAMIYATINING HISOBOTLARINI XALQARO STANDARTLARGA TRANSFORMATSIYA QILISH	262
<i>Astanov Zafar Murodillayevich</i>	
QARAMA-QARSHI AYLANUVCHI IKKI ROTORLI SHAMOL TURBINASINING MATEMATIK MODEL	266
<i>Pirmatov Nurali Berdiyevich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Saodullayev Abror Saypullayevich, Qurbonov Najmiddin Abduxamidovich</i>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTIONAL VA INVESTITSION MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	272
<i>Norboyev Sarvar Azodovich</i>	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT SOHASIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY AHAMIYATI	277
<i>Jaloliddinov Anvar Jaloliddin o'g'li</i>	
ANALYSIS OF UZBEKISTAN'S MAIN ECONOMIC INDICATORS AND GDP GROWTH	283
<i>B. Beknazarov</i>	



SOTISH JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA MARKETING TADQIQOTLARINING INTEGRATSIYASI	288
Abduxalilova Laylo Tohtasinovna	
ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В АУДИТЕ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ: ГЛОБАЛЬНЫЙ И УЗБЕКСКИЙ КОНТЕКСТ	294
Мегноров Алмардон Абдирахмонович	
RISK MANAGEMENT STRATEGIES IN UNCERTAIN ECONOMIC ENVIRONMENTS: A GLOBAL COMPARATIVE STUDY	302
Nigmatova Malika	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	307
Hamrayev Maqsudjon Saidaxmadovich	
BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH MASALALARI	311
Mamajonova Gulbaxor Toxirjon qizi	
АВТОМАТИЗАЦИЯ АУДИТОРСКИХ ПРОЦЕДУР НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ: ВЛИЯНИЕ НА КАЧЕСТВО АУДИТОРСКИХ ЗАКЛЮЧЕНИЙ	316
Киличева Ф.Б.	
MAISHIY TEXNIKA EKSPORTIDA YASHIL IQTISODIY SAMARADORLIKNI BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	320
Kushmanova Mahbuba	
GAZ TA'MINOTIDA YO'QOTISHLARNI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI	324
Xamidov Xayriddin Faxritdinovich	
DAVLAT AKTIVLARINI XUSUSIYLASHTIRISHNING MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRINI BAHOLASH (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA).....	329
Sharapov Farrux Shomuratovich	
КРИТЕРИИ ОТБРАКОВКИ ЭКСТРУЗИОННЫХ АЛЮМИНИЕВЫХ ПРОФИЛЕЙ ГРУППЫ ALMGSI ПО МАКРОСТРУКТУРНЫМ ПРИЗНАКАМ В ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ УСЛОВИЯХ	333
Ибрахимов Фаррухжон Фарходович	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DEBITORLIK QARZLARI VA FAKTORING OPERATSIYALARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	336
G'oziyeva Mokhira Rustamovna	
KULTIVATOR YUMSHATKICH PANJALARI O'TMASLANISH DARAJASINING ISH KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI	345
Quvondiqov Yoqub Tursunbaevich, Nuraliyev To'liq Alimardanovich	
SANOAT KORXONALARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION STRATEGIYANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALAR	352
To'g'onov Ibroximxo'ja	
TMK KORXONASI SHAROITIDA R6AM5 MARKALI TEZKESAR PO'LATDAN TAYYORLANGAN PARMA UCHUN TERMIK ISHLOV BERISH REJIMI	358
Djalalova Sevara Toxtamuratovna	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ	362
Шоев Алим Халмуратович	
TRANSFORMATSIYA VA XUSUSIYLASHTIRISH OMILLARINING BANK SAMARADORLIGI KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI	367
Umirzoqova Aziza Olim qizi	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH	372
Ismatov Raxmatilla Oltinovich	
RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARI TADBIRKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA.....	376
Yoqubjonov Ibrohim G'olibjon o'g'li	



BANK TIZIMIDAGI AKTIVLARINING UNUMDORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA STRATEGIK YONDASHUVLAR	379
Sadikov Q.M.	
СЦЕНАРНОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ПОВЫШЕНИЯ ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТИ ОТРАСЛЕЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ НЕОПРЕДЕЛЁННОСТИ И СТРУКТУРНЫХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ	383
Муслимова Ф.С., Хашимова Н.А.	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIBBIY XIZMATLARNI TAQDIM QILISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	390
S.M. Raximova	
YANGI O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI AXBOROT-RESURS MARKAZLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH MODELI	395
Qurbanova Muazzam Fazliddinova	
IQTISODIYOTNING TRANSFORMATSIYALASHUVI JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING TAHLILI	399
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISH MASALALARI	404
Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING INNOVATSION FAOLIYATINI INVESTITSİYALAR YORDAMIDA QO'LLAB-QUVVATLASH	408
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
FRANSUZ TILIDA FE'L SEMANTIKASINING KO'PMA'NOLILIK VA BIRMA'NOLILIK ASPEKTLARI	412
Jo'rayeva Malohat Muhammadovna, Bekmetova Munisa Karimbayevna	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTISIYALARDA CHET-EL INVESTISIYASI VA KREDITLARINI ROLI	418
Sultanov Anvar Abdullaevich	
INSON QON TOMIRLARINING TARMOQLANISHINI L-SISTEMALAR ASOSIDA HOSIL QILISH ALGORITMNI ISHLAB CHIQISH	423
Boliyeva Dilrabo Nurbek qizi	
YASHIL IQTISODIYOT LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK (DXSH)NING AHAMIYATI	429
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI	434
Otayor Usmonaliyev	
TIJORAT BANKLARIDA VALYUTA ARBITRAJI VA UNING MOHIYATI	440
Yaxyayev Ziyodilla Lutfullayevich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA SOHASINI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI	443
Mirzaraximova Aziza Azimdjanovna	
DON VA UN MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISH XUSUSIYATLARI	450
Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA TUXUM ISHLAB CHIQARISHNING JORIY HOLATI TAHLILI	454
Ismoilov Zuhridin Sayitqulovich	
ZAMONAVIY TURAR-JOY ME'MORCHILIGIDA MILLIYLIK VA AN'ANAVIYLIKNING O'RNİ VA AHAMIYATI	459
Toshniyozov Otabek Hakimovich	
MARKAZIY QIZILQUM FOSFORIT RUDALARIDAN QIMMATBAHO KOMPONENTLARNI KOMPLEKS AJRATISH TEXNOLOGIYASI	464
Eshonqulov Uchqun Xudaynazar o'g'li, Ruzibayeva Dildora Akramovna, Xushvaqtova Dilshoda Shavkat qizi	



BANKLARDA CHAKANA KREDITLASH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH TARTIBI	470
Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi	
TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING XALQARO MODELLARI HAMDA ULARNING AMALIY AHAMIYATI	476
Nodirbek Shavkatovich Mirzaaxmedov	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIDA XOTIN-QIZLARNING BOSHQARUV KARYERASI: MOHIYATI, ZARURIYATI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	483
Abduraxmonova Feruzabonu	
ASOSIY KAPITALGA INVESTITSİYALARNI MOLİYALASHTIRISHNING RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR TAJRIBALARI	489
Xoshimov Sobir Murtazayevich	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATINING TASHKILIY TUZILMASINI OPTIMALLASHTIRISH	495
Uzakova Umida Ruziyevna	
OLIY TA'LIMNI MOLİYALASHTIRISH SAMARADORLIGI VA PROFESSOR-O'QITUVCHI-TALABA NISBATI O'RTASIDAGI IQTISODIY BOG'LIQLIK	502
Dusanov Salim Mamarasulovich	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ВНЕДРЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СИСТЕМЫ AML: АНАЛИЗ ПРАКТИК ВЕДУЩИХ БАНКОВ И СТРАН СНГ	507
Рашидов Авазбек Рахимович	
BOJXONA TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR TAHLILI	516
Radjapova Latofat Sardorovna	
DEFORMATSIYALANUVCHAN STANDART CHIZIQLI QATTIQ (STANDARD LINEAR SOLID MODEL, SLS) MODEL ISHLAB CHIQISH VA SONINI TAHLIL QILISH	523
Ahmadov Ilhom Aktam o'g'li, Faxriddinova Rayhona Vahobjon qizi, Rustamova Ruxsora Kamtar qizi	
ВЛИЯНИЕ КЕРАМИЧЕСКИХ КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОКРЫТИЙ НА ТЕПЛОВУЮ ЭФФЕКТИВНОСТЬ КАМЕННОГО ТЕПЛОАККУМУЛЯТОРА В СОЛНЕЧНО-АССИСТИРОВАННЫХ БИОГАЗОВЫХ УСТАНОВКАХ	530
Д.М. Жураханов	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY MOLIIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING KELAJAKDAGI IMKONIYATLARI	537
Akbarov Husniddinjon Mo'ysin o'g'li	
MAHALLIY BUDJETLARNI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA OCHIQLIKNI KUCHAYTIRISH	544
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Normatov Joxongir Murodillayevich	
DON MAHSULOTLARI TARMOG'IDA ISHLAB CHIQARISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	548
Aipova Iroda Ikramovna	
BUXORO VILOYATI SANOATI ISHLAB CHIQARISHINING TARMOQ TARKIBI DINAMIKASI VA UNDAGI O'ZGARISHLAR TAHLILI	554
Toshov Mirzabek Hakimovich	
TEMIR YO'L TRANSPORTINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEZONLARI	560
Nurxo'jayeva Xilola Hakimxo'jayevna	
СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УПРАВЛЕНИИ УГОЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТЬЮ НА ОСНОВЕ УСТОЙЧИВОСТИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА	568
Teshaboyev To'liqin Zakirovich, Muradov Botir Xayyat	
IQTISODIYOT TARMOQLARIDA SUV ISTE'MOLINING BOSHQARUVINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI	578
Karimov Anvarjon Muqumjonovich, Turg'unov Muhammadaziz Baxtiyorjon o'g'li	
SUV RESURSLARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA MOBIL ILOVALAR ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARI	584
Karimov Anvarjon Muqumjonovich, Uzakov Sirojiddin Djuraboyevich	



SUN'IIY INTELLEKT VA IQTISODIYOTNING O'ZARO ALOQADORLIGI	591
Sobirov Abdurasul Abdugafarovich	
IDENTIFICATION OF WEAVING STRUCTURES IN PILE FABRICS	596
Bahrom Baturovich Dautov, Bakhtiyor Yormakhmatovich Abduganiyev, Erkin Shamsiddinovich Rayxonov, Nazar Kilichov Bafoevich	
INNOVATIVE APPROACHES TO ENSURING FINANCIAL STABILITY IN COMMERCIAL BANKS	602
Otjanova Shahnoza Shuhratovna	
AXBOROT-RESURS MARKAZLARI FAOLIYATI VA OLIY TA'LIM SIFATI KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK MASALALARI	608
Pirmedova Xayitgul Muxammedovna	
TIJORAT BANKLAR FAOLIYATIDA DAROMADLAR VA UNING AHAMIYATI	613
Kenjayev M.G'.	



TIJORAT BANKLAR FAOLIYATIDA DAROMADLAR VA UNING AHAMIYATI

Kenjayev M.G'.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, PhD, dotsent

Annotatsiya. Bugungi kunda tijorat banklari daromadlari, bank moliyaviy natijalarini shakllantirish, ularni hisoblash va samarali tahlil qilish, shuningdek, bank foydasi tushunchalarini chuqur o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning asosiy omillari sifatida kapital yetarliligi va bank faoliyatining daromadlilik darajasi e'tirof etiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir tijorat bankinging asosiy maqsadi — daromadlarni oshirish, xarajatlarni optimallashtirish orqali maksimal foydaga erishishdir. Banklarning moliyaviy ko'rsatkichlari daromadlar va xarajatlarni aks ettiruvchi moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot asosida baholanadi. Mazkur tadqiqotda tijorat banklarining daromad va xarajatlari tahlil qilinib, ularning daromadlilik darajasi hamda foydasiga doir ko'rsatkichlar asosida ilmiy-amaliy xulosalar va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy barqarorlik, daromadlilik, daromad, xarajat, bank foydasi, kreditlash, foizli daromadlar, foizli xarajalar, operatsion xarajalar, foizsiz daromadlar, foizsiz xarajalar, modernizatsiya, bank-moliya tizimi, moliyaviy natijalar, kapital, kapital yetarliligi, banklarning kapitallashuvi.

Abstract. In the current economic environment, the issues of forming commercial banks' income, calculating and analyzing financial results, as well as assessing bank profitability, are of significant scientific and practical importance. The financial stability of commercial banks is primarily determined by capital adequacy and the level of profitability of banking activities. In a market economy, the main objective of each commercial bank is to increase income and optimize costs in order to achieve maximum profit. Banks' financial performance is assessed based on financial statements reflecting income and expenses. This study analyzes the income and expenses of commercial banks and develops well-grounded conclusions and practical recommendations aimed at improving their profitability and operational efficiency.

Keywords: financial stability, profitability, income, expenses, bank profit, lending, interest income, interest expenses, operating expenses, non-interest income, non-interest expenses, modernization, banking and financial system, financial results, capital, capital adequacy, bank capitalization.

Аннотация. В современных условиях вопросы формирования доходов коммерческих банков, расчёта и анализа финансовых результатов, а также оценки прибыли банка приобретают особую научно-практическую значимость. Основой обеспечения финансовой устойчивости коммерческих банков являются достаточность капитала и уровень доходности банковской деятельности. В условиях рыночной экономики основной целью каждого коммерческого банка является увеличение доходов и оптимизация расходов для достижения максимальной прибыли. Финансовые показатели банков оцениваются на основе отчёта о финансовых результатах, отражающего доходы и расходы. В статье проводится анализ доходов и расходов коммерческих банков, а также формулируются обоснованные выводы и практические рекомендации по повышению уровня их доходности и эффективности деятельности.

Ключевые слова: финансовая устойчивость, доходность, доходы, расходы, прибыль банка, кредитование, процентные доходы, процентные расходы, операционные расходы, непроцентные доходы, непроцентные расходы, модернизация, банковско-финансовая система, финансовые результаты, капитал, достаточность капитала, капитализация банков.

KIRISH

Bugungi kunda respublikamiz bank-moliya tizimining barqarorligini ta'minlash muhim ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bank tizimini kengaytirish va rivojlantirish ko'p jihatdan banklar faoliyatida daromadlilik darajasini oshirish hamda daromadlardan samarali foydalanishga bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan, banklarning kapitallashuvini va investitsiyaviy faolligini yanada oshirish, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarning ustuvor

yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan kreditlash tizimini takomillashtirish hamda uning hajmini kengaytirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Iqtisodiyotda tijorat banklari bozor infratuzilmasida o'z vazifalarini samarali amalga oshirishi natijasida o'z mavqeini mustahkamlab boradi. Bu esa, o'z navbatida, banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim shartlari sifatida kapital yetarliligini mustahkamlash, bank aktivlarining barqaror daromadlilik darajasiga erishish, bank foydasini oshirish hamda xarajatlarni optimallashtirishga qaratilgan oqilona moliyaviy siyosat yuritish alohida ahamiyat kasb etadi. Demak, tijorat banklari faoliyatida daromadlar va ularning ahamiyati respublikamiz bank-moliya tizimi barqarorligini ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlashning asosiy omili uning kapitali va bank faoliyatining daromadlilik darajasidir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir tijorat bankining asosiy maqsadi daromadlarni ko'paytirish, xarajatlarni kamaytirish va optimallashtirish orqali yuqori hamda barqaror foydaga erishishga qaratiladi.

Bank tizimi amaliyotida tijorat banklari O'zbekiston Respublikasining 21-dekabr 1995-yildagi "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi 154-I-sonli¹ va O'zbekiston Respublikasining 5-noyabr 2019-yildagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-580-sonli² Qonunlar, shuningdek, Markaziy bank tomonidan qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida o'z daromadlarini shakllantiradi hamda xarajatlarini amalga oshiradi.

Tijorat banklarida daromad va xarajatlar hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etishning uslubiy jihatlarini yetarli darajada o'rganilmaganligi, shuningdek, bank daromadlari, moliyaviy natijalarni shakllantirish, ularni hisob-kitob qilish, samarali tahlil etish va bank foydasini taqsimlash masalalarining dolzarbligi ushbu mavzuning ilmiy-amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Tijorat banklarining daromadlari tarkibiga olingan barcha foizlar, komissiya yig'irlari va dividendlar kiradi. Umuman olganda, bank daromadlari foizli va foizsiz daromadlar guruhiga ajratiladi.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida bank-moliya tizimi faoliyati barqarorligini mustahkamlash va uni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish muhim vazifalardan biridir. Bank moliyaviy natijalari tarkibida daromadlar hajmining oshib borishi hamda xarajatlarning oqilona optimallashtirilishi banklar faoliyati barqarorligini mustahkamlashga va ularning samaradorligini yuksaltirishga xizmat qiladi. Bunday natijalar esa mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlashning metodologik va amaliy asoslari xorijiy hamda mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq qilingan bo'lib, ushbu yo'nalishda muhim ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

I. Fisherning ilmiy qarashlariga ko'ra, buxgalteriya hisobida aniqlanadigan an'anaviy foyda har doim ham iqtisodiy mazmunga to'liq ega bo'lavermaydi. U tovarning sotilishi asosan uning qiymati va keltiradigan (yoki keltirishi mumkin bo'lgan) daromadiga bog'liq ekanini ta'kidlab, moliyaviy natijani (foydani) hisobot davrida aktivlar daromadlilikining o'zgarishi hisobiga qiymatning o'sishi sifatida talqin etadi.

Iqtisodchi olim Ya.V. Sokolov moliyaviy natijani murakkab iqtisodiy kategoriya sifatida baholab, uni muayyan hisobot davrida olingan foyda yoki zarar bilan ifodalaydi. Uning fikricha, moliyaviy natija hisobot davrida kapital qiymatining o'zgarishini aks ettiradi: agar u ortsa — foyda, kamayca — zarar haqida so'z yuritiladi.

V. Usoskinning xulosalariga ko'ra, bank rahbariyati yuqori daromad olish maqsadida riskka moyil bo'lishi mumkin, bu esa omonatchilar manfaatlarini bilan muvozanatni ta'minlash zaruratini yuzaga keltiradi.

Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan Yo.A. Mahmudaliyeva o'z ilmiy izlanishlarida foydani "daromad summasining qilingan xarajatlardan ortiq qismi" sifatida ta'riflaydi. Shuningdek, N.F. Karimov foydani iqtisodiy kategoriya sifatida izohlab, uni qo'shimcha mahsulotning bir qismini ishlab chiqarish va taqsimlash bilan bog'liq ishlab chiqarish munosabatlarining tarkibiy qismi, ya'ni yangidan yaratilgan qiymatning muhim elementi sifatida ko'rsatadi. Shu orqali u foydaning faqat buxgalteriya ko'rsatkichi emas, balki iqtisodiy mazmunga ega bo'lgan kattalik ekanini asoslaydi.

Umuman olganda, olimlarning fikr-mulohazalaridan kelib chiqib, moliyaviy natija daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida namoyon bo'lishi hamda u foyda yoki zarar ko'rinishida ifodalanishini xulosa qilish mumkin.

Yuqoridagi yondashuvlar bank daromadlari va foydasining shakllanishi bo'yicha yagona konsepsiya mavjud emasligini ko'rsatadi, chunki bu masala manfaatdor tomonlarning maqsadlari bilan bevosita bog'liq. Xususan, aktivlar tarkibiga nimalar kiritilishi va buxgalteriya foydasi qanday hisob-kitob qilinishi ushbu yondashuvlarning mazmunini belgilab beradi.

1 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 21.12.1995 yildagi 154-I-son <https://lex.uz/uz/docs/-72266>.

2 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 05.11.2019 yildagi O'RQ-580-son <https://lex.uz/ru/docs/-4581969>.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining amaldagi yo'riqnomalari va statistik ma'lumotlaridan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalanildi. Jumladan, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son³ "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son⁴ "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi, 2017-yil 2-sentabrdagi PF-5177-son⁵ "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlar, shuningdek, 2018-yil 23-martdagi PQ-3620-son⁶ "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi hamda 2017-yil 12-sentabrdagi PQ-3270-son⁷ "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va uning barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlar tadqiqotning normativ-huquqiy asosini tashkil etdi.

Ushbu hujjatlarda belgilangan vazifalarni o'zlashtirish hamda tijorat banklari faoliyatida daromadlar va ularning ahamiyatini ilmiy asosda tahlil qilish jarayonida induksiya va deduksiya, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil va sintez kabi umumilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon bank amaliyoti ekspertlarining tavsiyalariga ko'ra, tijorat banklari yalpi daromadlarining umumiy hajmida foizli daromadlarning ulushi kamida 70 foizni tashkil etishi lozim. Tijorat banklari foizli daromadlarining umumiy hajmida kreditlar bo'yicha olingan foizli daromadlar ulushining yuqori va barqaror bo'lishi ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Tijorat banklarining daromad bazasini shakllantirishning me'yoriy-huquqiy asoslari sifatida O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi hamda "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan tegishli qaror va farmonlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining amaldagi yo'riqnomalari hamda statistik ma'lumotlari xizmat qiladi.

Tijorat banklarining asosiy maqsadi tavakkalchilik darajasini maqbullashtirgan holda yuqori rentabellikka erishish va barqaror daromad olishdan iborat. Daromadlar hajmining ortib borishi banklar boshqaruv sifati oshib borayotganini aks ettiradi hamda bank tizimidagi ularning o'rnini belgilaydi.

Tijorat banklarining moliyaviy ko'rsatkichlari daromadlar va xarajatlarni aks ettiruvchi moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot asosida aniqlanadi va baholanadi. Bankning moliyaviy holatini tavsiflovchi asosiy manbalardan biri ham aynan muayyan davrlar uchun taqdim etiladigan moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot hisoblanadi.

1-jadval. Respublika bank tizimida tijorat banklarining daromadlari, xarajatlari va sof foydasi (mlrd so'mda)⁸

№	Ko'rsatkichlar	01–04–2022	01–04–2023	01–04–2024	01–04–2025
1	Foizli daromadlar	14 285,0	18 833	25 872	28 898
2	Foizli xarajatlar	8 740,3	12 258	18 027	20 079
3	Foizli marja (1–2)	5 544,7	6 575	7 845	8 819
4	Foizsiz daromadlar	8 393,3	11 742	12 988	16 580
5	Foizsiz xarajatlar	2 228,0	2 328	3 693	5 033
6	Operatsion xarajatlar	2 756,0	3 891	4 760	6 123
7	Foizsiz daromad (zarar) (4–5–6)	3 410,0	5 523	4 534	5 424
8	Kredit va lizing bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar uchun zaxiralar	5 591,0	6 665	7 503	8 330
9	Boshqa aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar uchun zaxiralar	807,0	1 578	1 848	1 821
10	Soliq to'langunga qadar foyda (3+7)–(8+9)	2 557,0	3 855,0	3 029	4 091
11	Foyda solig'i bo'yicha xarajatlar	660,0	789,0	648	672
12	Sof foyda	1 897,0	3 066,0	2 381	3 419

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>.

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.05.2020 yildagi PF-5992-son <https://lex.uz/docs/-4811025>.

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 02.09.2017 yildagi PF-5177-son <https://www.lex.uz/uz/docs/-3326421>.

6 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 23.03.2018 yildagi PQ-3620-son <https://lex.uz/uz/docs/-3593541>.

7 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 12.09.2017 yildagi PQ-3270-son <https://lex.uz/docs/-3342348>.

8 O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining internet sayti ma'lumotlari (2025-yil) asosida tayyorlangan.

Respublika bank tizimida tijorat banklarining daromadlari, xarajatlari va sof foydasi to'g'risidagi ma'lumotlar 1-jadvalda keltirilgan. Unda bank daromadlari va xarajatlarini aks ettiruvchi moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari umumlashtirilib, foizli marja, foizsiz daromad (zarar), soliq to'langunga qadar foyda (zarar) hamda sof foyda (zarar) ko'rsatkichlari tegishli matematik amallar asosida hisoblab chiqilgan.

Aniqlangan ko'rsatkichlarga e'tibor qaratilsa, ularning aksariyatida o'sish tendensiyasi kuzatiladi. Demak, respublikamizda tijorat banklarining daromadlari va sof foydasi 2022–2025-yillar davomida umumiy ijobiy dinamikaga ega bo'lganini ko'rish mumkin. Jadvalda keltirilgan bank amaliyotiga oid ma'lumotlar ushbu xulosani tasdiqlaydi.

1-jadvalda berilgan bank daromadlari va xarajatlarini aks ettiruvchi moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ma'lumotlaridan kelib chiqib, 2-jadvalda respublika bank tizimida tijorat banklarining daromadlilik ko'rsatkichlariga oid asosiy koeffitsiyentlar hisoblab chiqildi (2-jadval).

2-jadval. Respublika bank tizimida tijorat banklarining daromadlilik ko'rsatkichlari⁹

№	Ko'rsatkichlar	01–04– 2022	01–04– 2023	01–04– 2024	01–04– 2025
1	Soliq to'langunga qadar foydaning jami aktivlarga nisbati (ROA), %	2,3	2,8	1,8	2,1
2	Sof foydaning jami kapitalga nisbati (ROE), %	10,6	15,1	9,6	11,6
3	Sof foizli daromadlarning jami aktivlarga nisbati, %	4,9	4,7	4,7	4,4
4	Kreditlar bo'yicha olingan sof foizli daromadlarning jami kredit qo'yilmalariga nisbati, %	6,5	6,4	6,6	6,4
5	Sof foizli daromadlarning jami majburiyatlarga nisbati, %	5,9	5,5	5,6	5,2
6	Sof foizli marjaning jami aktivlarga nisbati, %	5,0	4,7	4,8	4,5

Respublikamiz bank tizimida tijorat banklarining daromadlilik ko'rsatkichlari 2-jadvalda keltirilgan. Umuman olganda, yillar davomida banklarning daromadlilik ko'rsatkichlariga oid koeffitsiyentlar qiymatlarida keskin o'zgarishlar kuzatilmagan, bu esa tizimning nisbatan barqaror faoliyat yuritayotganini ko'rsatadi.

Banklarning umumiy sof foydasi 2025-yilda 15,01 trln so'mni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan qariyb ikki baravar, aniqrog'i, 122,5 % ga oshganini anglatadi. Ma'lumot uchun, 2024-yilda banklar 6,96 trln so'm sof foyda olgan edi. Mazkur natija banklar faoliyatining kengayib borayotgani va ularning moliyaviy barqarorligi mustahkamlanayotganini ifodalovchi muhim ijobiy ko'rsatkich hisoblanadi.

2025-yil yakunlari bo'yicha eng yuqori sof foyda ko'rsatkichiga erishgan tijorat banklarining TOP–5 ro'yxati shakllantirildi. Umuman, 2025-yilda O'zbekiston bank tizimi rekord darajada — jami 15,5 trln so'm sof foyda oldi. Eng yuqori moliyaviy natijalar O'zmilliybank, SQB va Kapitalbank hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, 2024-yilda zarar bilan ishlagan ayrim banklar 2025-yilda foydaga chiqdi, bu esa sektor barqarorligi va boshqaruv samaradorligi oshib borayotganini ko'rsatadi. Ayrim banklarda foyda hajmining qisqarishi esa raqobat muhitining kuchayishi va xarajatlarni optimallashtirish zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi (3-jadval).

3-jadval. 2025-yil yakunlari bo'yicha eng katta sof foyda ko'rsatkichiga erishgan tijorat banklarining TOP–5 ro'yxati¹⁰

№	Tijorat banklarining nomi	Sof foyda (trln so'm)
1	O'zmilliybank	1,92
2	O'zsanoatqurilishbank	1,88
3	Kapitalbank	1,79
4	Hamkorbank	1,70
5	Orient Finance Bank	1,04

2025-yilda O'zbekiston bank tizimi rekord darajada — jami 15,5 trln so'm sof foyda oldi. Eng yuqori moliyaviy natijalar O'zmilliybank, SQB va Kapitalbank hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, 2024-yilda zarar bilan ishlagan MK Bank, BRB va Ipotekabank 2025-yilda foydaga qaytdi, bu esa bank tizimida moliyaviy barqarorlikning mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi. Ayrim banklarda, xususan, TBC Bankda sof foydaning sezilarli darajada qisqarishi esa raqobat muhitining kuchayishi va xarajatlarni optimallashtirish zaruratini anglatadi.

9 O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining internet sayti ma'lumotlari (2025-yil) asosida tayyorlangan.

10 Bankers.uz sayti operativ ma'lumotlari (2025-yil).



Tijorat banklarining 2025-yil yakunlari bo'yicha umumiy sof foydasi barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'ldi. Bu holat ularning faoliyatida daromadlar hajmi ortib borayotganini va natijada foyda summasi ko'payayotganini ko'rsatadi. Mazkur jarayon banklar faoliyatini yanada kengaytirish va rivojlantirish uchun mustahkam moliyaviy asos yaratib, sohaning uzoq muddatli barqaror o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklarining daromadlar bazasini nazariy va amaliy ma'lumotlar asosida tahliliy o'rganish natijalariga tayangan holda, bank faoliyatining moliyaviy barqarorligi va samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator amaliy xulosalar chiqarish mumkin. Jumladan, bank faoliyatida kreditlardan olinadigan foizli daromadlar bilan depozitlar bo'yicha to'lanadigan foizli xarajatlar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash zarur bo'lib, bu holat foizli marjani barqaror saqlash va bank rentabelligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, tijorat banklarini tashkil etishda ustav kapitali miqdorini Markaziy bank tomonidan belgilangan minimal talabdan yuqori darajada shakllantirish maqsadga muvofiq bo'lib, bu bankning kapitallashuv darajasini oshirish orqali daromatlarni ko'paytirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi; bunday yondashuv rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotida ham keng qo'llaniladi.

Shu bilan birga, bank faoliyatida mavjud resurslar bazasidan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida bank monitoringi doirasida tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga izchil joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Resurslarni jalb etish jarayonida esa nisbatan arzon manba hisoblangan muddatli depozitlarga ustuvor ahamiyat berish maqsadga muvofiq, chunki boshqa banklardan jalb qilinadigan kredit resurslari, odatda, yuqori qiymatga ega bo'lib, bu bank xarajatlarning ortishiga olib kelishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'RQ–580-sonli Qonun, 05–11–2019. <https://lex.uz/ru/docs/-4581969>.
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 21.12.1995 yildagi 154-I-son <https://lex.uz/uz/docs/-72266>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi, 26–12–2025.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.05.2020 yildagi PF-5992-son <https://lex.uz/docs/-4811025>.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 02.09.2017 yildagi PF-5177-son <https://www.lex.uz/uz/docs/-3326421>.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 23.03.2018 yildagi PQ-3620-son <https://lex.uz/uz/docs/-3593541>.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 12.09.2017 yildagi PQ-3270-son <https://lex.uz/docs/-3342348>.
9. "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi 2696-sonli Nizom, 14–07–2015. <https://lex.uz/uz/docs/-2703053>.
10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2023-yil 23-avgustdagi "Tijorat banklarida foizlarni hisoblash tartibi to'g'risida"gi Nizomi (2023-yil 29-sentabrda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami — 3460). <https://lex.uz/docs/-6623671?ONDATE=04.01.2024>.
11. Lavrushin O. I. Razvitie bankovskogo sektora i yego infrastruktury v ekonomike Rossii. — M.: KNORUS, 2017. — B. 74.
12. www.bankir.ru — (O'zbekiston bank tizimi bo'yicha yangiliklar sayti).
13. www.finance.uz — (O'zbekiston Respublikasi biznes sayti).

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100